

Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish

Mulk huquqi — moddiy ne'matlarning konkret shaxslarga tegishliligi (o'zlashtirilganligi)ni mustahkamlovchi, tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi normalar yig'indisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga ko'ra, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga binoan, "har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli". O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Mustaqillik yillarida davlat mulkining hukmronlik qilishiga barham berildi, xususiy mulkning tashkil topishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Endilikda mulk egasiga tegishli bo'lgan mol-mulkni turli sabablar va har xil yo'l bilan davlat idoralari va mansabdor shaxslar tomonidan olib qo'yilishi, mulkdan erkin foydalanish uchun to'sqinliklar vujudga keltirilishi g'ayriqonuniy hisoblanadi. Mulk huquqi muddatsizdir. Mulk egasi o'z mulkidan abadiy foydalanish, uni xohlagan vaqtida tasarruf etish huquqiga ega. Ushbu qoidaning mantiqiy davomi sifatida Fuqarolik kodeksining 166-moddasida mulkning daxlsizligi va qonun bilan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 22-avgust** kuni o'tkazilgan tadbirkorlar bilan **ochiq muloqoti** doirasida belgilangan mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini yaratish, ushbu huquqlarni cheklayotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berildi.

Xususan, xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita cheklashni nazarda tutuvchi, mulkiy munosabatlarda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini to'liq joriy etishga to'sqinlik qiluvchi bir qator **tartiblar, talablar va cheklovlar** 2022-yil 1-sentabrdan boshlab **bekor qilindi. Jumladan, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlardan foydalanish, turar joyga bo'lgan mulkiy huquqlarni amalga oshirish, korporativ munosabatlar** sohalarda imtiyozlar joriy etildi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab Kadastr va ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimi (keyingi o'rinlarda – UZKAD tizimi) **ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarning davlat**

reyestri hamda ko‘chmas mulk obyektlari haqidagi ma’lumotlar yuritiladigan, ma’lumotlarining haqiqiyliги va ishonchliligi davlat tomonidan kafolatlanadigan yagona axborot tizimi etib belgilandi.

UZKAD tizimiga Garov reyestri, “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi, Ko‘chmas mulk ob’ektlari manzillari yagona reyestri, Tadbirkorlik sub’ektlari yagona davlat reyestri, O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestri, “Davlat mulki” axborot tizimi, Nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning bo‘linmalari reyestri, litsenziyalar, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va xabarnomalar reyestrlari va ko‘chmas mulk obyektlariga oid ma’lumotlar yuritilayotgan boshqa **barcha davlat axborot tizimlari integratsiya qilindi hamda real vaqt rejimida onlayn ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.**

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-198-son Farmoni bilan mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Direktorning yoshlar bilan
ishlash bo‘yicha o‘rinbosari

Otaqulov Jamshid